


ABDULLA QODIRIY VA
YANGI O'ZBEK ADABIYOTI

ABDULLA QODIRIY

VA
YANGI O'ZBEK ADABIYOTI

ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI



2024

ISBN 978-9910-9985-6-0



9 789910 998560

SAMO NASHR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOZUVCHILAR UYUSHMASI

**“ABDULLA QODIRIY IJODI
VA YANGI
O'ZBEK ADABIYOTI”**

mavzusidagi respublika
ilmiy-nazariy anjumani
to'plami

**“SAMO NASHR”
TOSHKENT - 2024**

УЎК 821.512.133.09(092)

КБК 83.3(5Ў)-8

К 23

Каримов Б.

Баҳодир Каримов. Абдулла Қодирий ва янги ўзбек адабиёти [Матн]
– Тошкент: Само нашр, 2024. 696 бет.

TAHRIR HAY'ATI:

A.Ulug'ov

D.Xoldorov

O.To'laboyev

O.Usmonov

U.Rasulova

R.To'laboyeva

MAS'UL MUHARRIR:

prof. Bahodir Karimov

To'plamdan respublika konferensiyasi materiallari o'rin olgan. Maqolalarda filologiya ilmining turli sohalariga oid ilmiy kuzatishlar jamlangan bo'lib, mazkur sohaga oid barcha mutaxassislarga mo'ljallangan.

ISBN 978-9910-9985-6-0

©“Тузувчи: Баҳодир К, 2024

©“Само нашр” нашриёти, 2024

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA MAKTUBNING BADIY FUNKSIYASI

S.S.Rasulova,

ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada romanda qo‘llanilgan maktublar tahlil qilingan. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi maktublar o‘rganilgan. “O‘tkan kunlar” asarida Yusufbek hojining o‘g‘li Otabekka yozgan javob maktubi va romanda turli mazmunda bitilgan 14 ta maktublar tahlil qilingan. Asardan parchalar keltirilib, fikrlar dalillangan.*

Kalit so‘zlar: *roman, rus adabiyoti, xat, maktub, qiyosiy tahlil, shaxsiy xatlar, qahramonlar ruhiyati, tarixiy voqelik.*

Аннотация. *В данной статье анализируются буквы, использованные в романе. Были изучены буквы из романа Абдуллы Кадири “Откан Кунлар”. В “Откан Кунлар” анализируется ответное письмо Юсуфбека-хаджи Отабеку и 14 писем, написанных в разных контекстах романа. Приводятся выдержки из работы и доказываются мнения.*

Ключевые слова: *роман, русская литература, письмо, сравнительный анализ, личные письма, психика героев, историческая действительность.*

Annotation. *This article analyzes the letters used in the novel. The letters in Abdulla Qodiriy’s novel “Days Past” are studied. In the work “Days Past”, the response letter written by Yusufbek Haji to his son Otabek and 14 letters written in various contents in the novel are analyzed. Excerpts from the work are cited and ideas are substantiated.*

Keywords: *novel, Russian literature, letter, letter, comparative analysis, personal letters, psyche of heroes, historical reality.*

“Xat – ijtimoiy-siyosiy hayotda ham, shaxsiy hayotda ham g’oyat muhim hodisadir. Hukmdorlar o’rtasidagi siyosiy yoki diplomatik maktublar butun-butun davlatlar hayotida muayyan rol o’ynagan. San’at madaniyat vakillari o’rtasidagi maktublarda muhim ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy masalalar o’rtaga tashlangan va hal etilgan. Shaxsiy maktublar esa xodimlar o’rtasidagi do’stlik, mehr-muhabbat, sadoqat in’ikosidir. Hayotda uchraydigan mana shu xat turlarining barchasi badiiy adabiyotga olib kirilgan” [1. – B. 26].

Demak, maktublar hukmdorlar, san’at arboblari va do’stlar orasida o’zaro aloqa vositasini bajargan. Maktublarni biz siyosiy, ilmiy va shaxsiy maktublarga ajratib tahlil qilishimiz mumkin.

O’zbek adabiyotida ilk roman hisoblanmish “O’tkan kunlar”-da ham maktublarga ko’plab o’rinlarda murojaat etilgan. Birgina shu asarning o’zida jami 14 ta turli mazmundagi maktublar bitilgan. Soxta taloq xati asarda tugun hosil qilib, voqealarning rivojiga sabab bo’ladi.

Yusufbek Hojining o’g’li Otabekka yo’llagan maktubiga e’tibor qaratmoqchimiz. *“Ko’zimizning nuri, belimizning quvvati, hayotimizning mevasi o’g’limiz mulla Otabekka yetib ma’lumu ravshan bo’lg’aykim, Alhamdulillah biz duogo’y padaringiz, mushtipar onangiz va yaqin do’stlaringiz munda Haq taoloning hivzu hi-moyatida sihat va salomat bo’lib, ko’z nurimizning duoyu jonini subhi shom, balki allatdavom Robbil Alamindan rajo va taman-no etmakdamiz. Janobi Haq bot fursatlarda, yaqin va sayid soat-larda to’kis-tugallik bilan diydor ko’rishmamlakni nasib va ro’zi qilsin. Omin. Yo Robbil Alamin. Va’da so’zimiz, o’g’lim Marg’ilonga sihat va salomat yetish maktubingni olib, Haq taloga shukurlar qildik. Bizning Toshkentdan axqol so’rasang, balki Marg’ilonga ham eshutilgandir. Munda Azizbek qandog’dur bir kuchga tayanib, Qo’qonga qarshi isyon etti. Xazina hisobini olish uchun kelgan devon beklarini o’ldirib, o’rda darvozasiga osdi. Bunga qarshi Qo’qon ham tinch yotmog’on bo’lsa kerak? Bu kun kirovchidan*

besh ming sipox ila Normuhammad Qushbegining Toshkent ustiga buyurilg'onlig'ini eshitdik. Fuqaroning tag'in qandog' ko'rguliklari bor ekan o'g'lim!? Kechagina qonlig' qilichini fuqaroning ustida yurg'izib turg'on Azizbekka uning tig'i zulmi bilan qoniga belanilgan o'g'lining, otasining, onasining, og'asining mazlum gadvasi tuproq ostida hali chirimay turib, bu kun xalq yana Azizbekka o'sha qonxo'rga o'z qoni bilan yamin etdi. Azizbekni o'zining bir tomchi qoni qolguncha himoya qilishga ont ichdi. Azizbekning buyrug'i bilan kecha o'rda tagiga barcha Toshkent xalqi yig'ilgon. Bu yig'inda ulamolar ham bor, fuzalo ham bor. Xulosa shaharning har bir sinfidan halq holir edi. Azizbek o'rda qorovulxonasidan turib, fuqaroga salom qildi. Azizbekning salomiga musharraf bo'lg'uvchilarning ko'zlaridan yoshlar oqmoqda edi. O'g'lim, sen bir qadar oq bilan qorani ajrata olasan. Yozg'onlarimni diqqat bilan o'qi. Azizbek fotiha berdi. Xalq urush hozirligiga kirishdi. Ana o'g'lim, bizning xalqning holiga yig'lashni ham bilmaysan, kulishni ham bilmaysan. Har holda Toshkent ustiga yana qonlig' bulutlar chiqdi. Ishning oxiri nima bilan tinchlanar bu bir Xudogagina ma'lum. Boshqa so'zlardan ham ortiqroq esingga shuni solib o'tay. Siyosat to'g'rilarida o'ylabroq so'yla, arzimagan sabablar bilan halok bo'lgan jonlarni hamisha ko'z oldingda tut. Bu tinchsizlik bosilmaguncha Toshkentga kelmasligingni maslahat bera-man. Toshkent tinchlangandan kiyin agar salomat bo'lsam, o'zim xabar yuborurman. Munda barcha yoru do'st salomatdur. Mendan Hasan aliga salom ayt. Addoyi otang Yusufbek hoji. Toshkent yigirma yettinchi dalv oyida 1264-yilda yozildi"[7. – B. 69].

Nazariy jihatdan olib qarasak, bu maktub shaxsiy xatlarga kiradi. Bunda ota o'z o'g'liga o'zining ichki o'ylarini, havotirli qarashlari va sog'inchini ifoda qiladi. Maktubning mazmuni orqali:

1. Yusufbek hojining faqatgina o'ziga xos bo'lgan xarakter xususiyatlarini anglash mumkin (mehribon va ko'ngilchan ota. O'z xalqiga nisbatan jonkuyar va fidokor davlat arbobi. Buguni-dan saboq chiqarib, o'z xalqining ertasidan xavotirga tushayotgan shaxs).

2. Maktub tarixiy voqealardan xabar beruvchi vosita sifatida namoyon bo'lgan (o'sha davrdagi Toshkent Bekligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar, qipchoq va qorachoponlilar o'rtasidagi janglar, tarixiy shaxslar Azizbek va Musulmonqullarga ta'riflar).

3. Maktubning pand-nasihati shaklini ham ko'rishimiz mumkin (maktub so'ngidagi Yusufbek hojining xavotiri va o'g'li Otabekka bergan maslahatlari).

Yusufbek hoji maktubining mazmunidan asar qahramonlarining xarakter xususiyatlarini va tarixiy voqelikni anglashimiz mumkin.

Ushbu maktubning badiiy asardagi shakli va vazifasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak:

1. Maktub shakliga ko'ra, badiiy asarda xabar beruvchi va qahramonlarni o'limdan qutqaruvchi vosita vazifasida keltirilgan (tarixiy jarayonlardan Otabekni xabardor qiladi va Otabek hamda Mirzakarim qutidorni o'limdan saqlab qoladi).

2. Qahramonlar ruhiyatida jasorat va laganbardorlik tuyg'ularini shakllantirish uchun xizmat qilgan (Kumush ruhiyatida jasorat tuyg'usini o'yg'otadi va najot farishtasiga aylantiradi. Musulmonqul ruhiyatidagi g'alamislik, laganbardorlik kabi salbiy his (illat)larni ochib berishda qo'llaniladi).

Yusufbek hojining asardagi ilk maktubi qahramonlarning hayotiy kechinmalarini tasvirlab beribgina qolmasdan, balki badiiy asarning davomiyligini ham ta'minlab beradi.

Badiiy asarlarda ko'plab muhim funksiyalarni bajaruvchi maktublar o'zi qachon paydo bo'lgan?

Bu detalning ilk namunalarini qaysi millat asarlarida uchratishimiz mumkin?

Yuqoridagi savollarga javob topish uchun G'arb adabiy olamiga e'tibor qaratishimiz lozim. Zero, roman, qissa va hikoya kabi bir qator janr namunalari, eng avvalo, G'arb adabiyotida uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, Maktublar xoh G'arb adabiyotining, xoh Sharq adabiyotining namunasi bo'lsin, ular tarixiy voqelikdan, insonning iztiroblaridan, ong osti kechinmalaridan xabar berib turadi. Yuqorida keltirilgan maktub Ota tomonidan o'z farzandiga yuborilgan shaxsiy xat edi. Yusufbek hojining Otabekka yozgan maktubida milliy ruhni, farzandga nisbatan ham hurmatni, mehrni va aynan otalarga xos bo'lgan vazminlikni ko'ramiz. Asarda xatlar ma'lumot yetkazish uchun xizmat qilgan.

Adabiyotlar:

1. Базаров О.Ч. Ўзбек адабиётида эпистоляр жанр тараққиёти. – Тошкент, 2010.
2. Навоий А. МАТ. Ж. 20. 14-жилд. – Тошкентя: Фан, 1998. – 123 б.
3. Урнов Д. Эпистолярное литература. Краткая лелературная энциклопедия. Том 9. Сир 56. – М., 2000.
5. Ўзбек мумтоз адабиёти. – Тошкент: ФАН, 2001. – 34 б.
6. Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент, 2001.

МУНДАРИЖА

Баҳодир Карим “Бобурнома”дан “Ўткан кунлар” га,	3
Абдулла Улуғов Ҳикоя жанр андозаси	33
Dilmurod Xoldarov Qodiriyshunoslik qirralari	94
Олим Олтинбек Рауф Парфи ижодида қатағон қурбонлари сиймоси	101
Умида Расулова Хотиралар зимнидаги ҳақиқат	110

1-SHO‘BA.

ABDULLA QODIRIY VA O‘ZBEK NASRI

Nodira Soatova “O‘tkan kunlar” va “Tohir va Zuhra” dostoni: qiyos va talqin	115
O‘tkirbek Otayev Abdulla Qodiriy – o‘zbek romanchiligi asoschisi	123
S.Rasulova “O‘tkan kunlar” romanida maktubning badiiy funksiyasi	129
Xoliyor Safarov Abdulla Qodiriy hikoyalarida portret, peyzaj va badiiy tasvir ifodasi	134
O‘tkirbek Otayev, Bahrom Turg’unboev Qodiriy ijodida milliylik va ma’naviyat	143
Nilufar Ismoiljonova “Mehrobdan chayon” romanida ayollar ruhiyati tasviri	149
Ma’mura Sharipova “Mehrobdan chayon” romanida maqol janrining o‘rni	160